TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Ilmiy maslahatchi: **Perdesheva Nargiza Yesembayevna**
ChDPU Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
Xakimbayeva Sabohat Zerifboy qizi
saboxatxakimboyeva@gmail.com+998990473606
Abdullayeva Yulduz Paraxat qizi
abdullayevayulduz3103@gmail.com+998975083103
Abdullayeva Sadaoqat Paraxat qizi
abdullayevayulduz3103@gmail.com+998976661928
CHDPU Tabiiy fanlar fakulteti kimyo yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: "Ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari" mavzusidagi ushbu ishda zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion boshqaruv mexanizmlari va xalqaro tajribaning o'rni ko'rib chiqiladi.Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, organization innovatsiya, interaktivlik, STEAM modeli, moslashuvchan ta'lim, individuallik.

Аннотация: В данной работе на тему «Инновационные подходы к развитию системы образования» рассматриваются актуальные направления совершенствования современной образовательной системы. Особое внимание уделяется внедрению цифровых технологий, использованию дистанционных образовательных платформ, интерактивных методов обучения, STEAM-подхода, компетентностной модели и личностно-ориентированных педагогических технологий. Также анализируется роль инновационного управления и международного опыта в повышении качества образования. Результаты исследования показывают, что применение инновационных подходов способствует повышению эффективности образовательного процесса и подготовке конкурентоспособных специалистов.

Ключевые слова: инновации, организационные инновации, интерактивность, модель STEAM, гибкое обучение, индивидуальность.

Abstract: This paper entitled "Innovative Approaches to the Development of the Education System" examines current trends in improving the modern education system. Particular attention is given to the implementation of digital technologies, the use of distance learning platforms, interactive teaching methods, the STEAM approach, competency-based education, and student-centered pedagogical technologies. The study also highlights the importance of innovative management mechanisms and international experience in enhancing educational quality. The findings demonstrate that innovative approaches play a crucial role in

increasing the effectiveness of the educational process and preparing competitive specialists in accordance with contemporary requirements.

Keywords: innovation, organizational innovation, interactivity, STEAM model, flexible learning, individuality.

KIRISH

Innovatsiya – bu yangi g‘oyalar, mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarni yaratish va ularni amalda qo‘llash orqali jamiyat hayotida yoki biznes sohasida sifatli o‘zgarishlarga erishish jarayonidir. Bu tushuncha nafaqat yangi mahsulot yoki xizmat yaratishni, balki mavjud tizimlarni yaxshilash, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, samaradorliklarini oshirish va sharoitlarni o‘zgartirishni ham anglatadi. Mahsulot innovatsiyasi: Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki xizmat yaratishni o‘z ichiga oladi. Masalan, mobil telefonlarning har bir yangi modeli o‘zining yangilangan funksiyalari bilan bozorda mavjud mahsulotlarni innovatsion shaklda taklif qiladi. Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish.[1]

Bu turdagi innovatsiya xarajatlarni kamaytirish, tezlikni oshirish va samaradorlikni ko‘tarish orqali korxonalarni yanada raqobatbardosh qiladi. Organizatsion innovatsiya: Korxona yoki tashkilot ichida boshqaruv usullarini, resurslarni taqsimlash tizimini yoki ish jarayonlarini yaxshilash orqali amalga oshiriladi. Bu esa jarayonlarni soddalashtirish va ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi marketing usullarini qo‘llash yoki mavjud mahsulotlarni yangi usullar bilan targ‘ib qilish orqali xaridorlar bilan aloqalarni yaxshilash va talabni oshirishdir. Misol sifatida, raqamli marketingning keng tarqalishi ko‘plab korxonalar uchun samarali yechim bo‘lib xisoblanib kelmoqda.

METADOLOGIYA

Innovatsiya nafaqat alohida korxona yoki tashkilot uchun, balki jamiyat uchun ham bir qator ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi: Iqtisodiy o‘sish: Innovatsiyalar yangi imkoniyatlar yaratadi, investitsiyalarni jalb qiladi va bozorni kengaytiradi, bu esa iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Innovatsion kompaniyalar bozor talablariga moslashish va xaridorlarning ehtiyojlarini qondirish borasida yetakchilik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hayot sifatini yaxshilash: Innovatsiyalar orqali kundalik hayotdagi sharoitlar yaxshilanadi, yangi texnologiyalar va xizmatlar hayotni yanada qulay va samarali qiladi.Atrof-muhitga ijobiy ta'sir: Ko‘plab innovatsiyalar ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, tabiatga zarar yetkazmaydigan mahsulotlar yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi. Innovatsiya bugungi kunda taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

U iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlikni oshirish, hayot sifatini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu sababli, innovatsiyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq qilish hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuv – bu mavjud masalalarga yangi, ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirish usuli bo‘lib, u jarayonlar samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar har bir sohada, jumladan, ta’lim, biznes, tibbiyot va ishlab chiqarish kabi sohalarda qo‘llanilib, yangi imkoniyatlar va rivojlanish uchun sharoit yaratadi.

MUHOKAMA

Innovatsion yondashuvda eng asosiy narsa – ijodiy fikrlash va yangicha yondashuvdir. Bu masalalarni qabul qilingan usullardan tashqarida ko‘rib chiqish va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishni talab qiladi. Muammolarni yechishga yo‘naltirilganlik: Innovatsion yondashuv o‘z

oldiga muammolarni amaliy usulda hal qilishni maqsad qiladi. Shu sababli, har qanday yangi g‘oya yoki texnologiya konkret ehtiyojlar va talablar bilan asoslangan bo‘ladi. Ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuv va pedagogik tehnologiyalar.Texnologiyalarni qo‘llash innovatsion yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar orqali jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tez va oson tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.Innovatsion yondashuvda o‘zgargan sharoit va talablarni tezkor qabul qilish va ularga moslashish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar bugungi kunda taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat mahsulot va xizmat sifatini oshirish, balki jamiyatda yangi imkoniyatlar yaratish va hayot sifatini yaxshilash uchun ham xizmat qiladi. [2]

Innovatsion yondashuvni qo‘llash orqali korxonalar va tashkilotlar raqobatda kuchli bo‘lish, texnologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va mijozlar ehtiyojlariga moslashish imkoniga ega bo‘ladilar. Bugungi kun ta’lim tizimi zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga olmoqda. Global raqobat va texnologik o‘zgarishlar, shuningdek, axborot texnologiyalari rivoji ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlash uchun muhim vositadir. Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini takomillashtirish, yangi metodlarni joriy etish va pedagogik samaradorlikni oshirish maqsadida qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayoniga yangilik olib kirib, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Misol uchun, ta’limda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) modeli qo‘llanilishi o‘quvchilarda analitik fikrlash va ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi.. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayoniga quyidagi afzalliklarni kiritishini misol qilib keltirishimiz mumkin: [3]

- interaktivlik. Ta’limda interaktiv texnologiyalar qo‘llanilishi o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi;
- individuallik. Har bir o‘quvchining qobiliyatlari va o‘rganish tezligiga mos ravishda bilim berish imkoniyati yaratiladi.

Texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning bilim darajasini kuzatib borib, o‘z vaqtida tahlil va tahrir kiritishlari mumkin bo`lishini ko`rsatadi.

XULOSA

Ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarni mustaqil va faol o‘rganishga yo‘naltirish uchun juda muhim hisoblanadi. Bu jarayon zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi, chunki ular ta’lim sifatini yaxshilash va o‘qituvchilarga yangi imkoniyatlar taqdim etishga yordam beradi. Shu sababdan, innovatsion yondashuvlar ta`lim tizimini ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova N.S. Oliy ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniya tlari va istiqbollari. Oliy Ta’lim Muammolari ilmiy jurnali, 2018. – 2-son. – B.14-22.
2. Abdullaeva, N. (2019). *Pedagogik mahorat asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston. – B. 35–42.
3. Qodirov, A. (2021). *O‘qituvchi kasbiy faoliyati va pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan. – B. 56–63.
4. Sharipov, M. (2018). *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Yangi asr avlodi. – B. 70–78.